"MA'QULLANGAN" "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2024 yil "17" oktabrdagi 9-sonli qarori bilan **"TASDIQLANGAN"** "Imkon-Sug'urta" aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 2025 yil "09" aprel 62 -sonli qaroriga 5-ilova ("Ipoteka-bank" ATIB Boshqaruvi yig'ilishining 2025 yil "____" ______________ ____________-sonli bayoni bilan) **"IMKON-SUG'URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATINING KUZATUV KENGASHI TO'G'RISIDAGI N I Z O M I** (yangi tahrirda) Toshkent shahri, 2025 yil	**"APPROVED"** by the Decision of the Supervisory Board of the Joint-Stock Company "Imkon-Sug'urta" dated October 17, 2024 #9 **"ADOPTED"** Attachment # 5 to the Decision of the Sole Shareholder of the Joint-Stock Company "Imkon-Sug'urta" dated April 09, 2025 # 62 (with the Minutes of the meeting of the Management Board of JSCMB "Ipoteka-bank" dated ______________, 2025, # __________) **R E G U L A T I O N ON THE SUPERVISORY BOARD OF THE JOINT-STOCK COMPANY "IMKON-SUG'URTA"** (in a new edition) Tashkent city, 2025

I. UMUMIY QOIDALAR	I. GENERAL RULES
1.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda "IMKON-SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyatining (bundan keyin matnda "Jamiyat" deb yuritiladi) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.	1.1. This Regulation has been developed in accordance with the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" and "On Insurance Activities", as well as the Charter of the Joint-Stock Company "IMKON-SUG'URTA" (hereinafter referred to as the "Company").
1.2. Mazkur Nizom Jamiyatning Kuzatuv kengashi (bundan keyin matnda "Kuzatuv kengashi" deb yuritiladi) maqomini, Kuzatuv kengashining ishini, uning a'zolarini saylash (tayinlash) tartibini, shuningdek, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.	1.2. This Regulation defines the status of the Supervisory Board of the Company (hereinafter referred to as the "Supervisory Board"), its operations, the procedure for electing (appointing) its members, as well as their rights, obligations, and responsibilities.
1.3. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.	1.3. The Supervisory Board exercises overall management of the Company's activities, except for the issues within the scope of authority of the General Meeting of Shareholders, which are determined by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company's Charter.
II. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI	**II. POWERS OF THE SUPERVISORY BOARD**
2.1. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:	2.1. The following are included within the powers of the Supervisory Board:
Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Bosh direktorning hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;	Regularly hearing the report of the General Director regarding the measures being taken to achieve the Company's development strategy, and determining the priority areas of the Company's activities;
aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilgan hollar mustasno;	Calling the annual and extraordinary general meetings of shareholders, except in cases where the extraordinary general meeting of shareholders is called by individuals who have requested it;
aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;	Preparing the agenda for the General Meeting of Shareholders;
aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;	Determining the date, time, and place for the General Meeting of Shareholders;
aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish	Setting the date for forming the register of the Company's shareholders to notify them about the General Meeting of Shareholders;

sanasini belgilash;	
Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;	Proposing amendments and additions to the Company's Charter or the approval of a new version of the Charter for resolution by the General Meeting of Shareholders;
mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;	Organizing the determination of the market value of assets;
Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi **joriy yilning 1 dekabridan** kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;	Approving the Company's annual business plan. The business plan for the upcoming year must be approved no later than **December 1 of the current year**;
Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish va Jamiyatning "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash;	Organizing the internal audit service, appointing its employees, regularly reviewing its reports every quarter, and approving the "Regulation on the Internal Audit Service" of the Company;
Jamiyat faoliyatiga daxldor bo'lgan har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bosh direktordan olish. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;	Gaining free access to any documents related to the Company's activities and obtaining them from the General Director for fulfilling the tasks assigned to the Supervisory Board. The Supervisory Board and its members can only use these documents for service purposes;
auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;	Conducting an audit (excluding mandatory audits), selecting an auditing organization, determining the maximum payment for its services, and deciding on entering (or terminating) a contract with it;
dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;	Providing recommendations regarding the amount, form, and procedure for paying dividends;
Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;	Using the reserve fund and other funds of the Company;
Jamiyatning filiallari va sotuv markazlarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish;	Establishing branches and sales centers of the Company, as well as opening representative offices;
Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;	Establishing subsidiaries and dependent companies of the Company;
O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish	Making decisions regarding transactions by the Company in the cases specified in Chapters 8 and 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";

MA

to'g'risida qaror qabul qilish;	
Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tuzish;	Concluding transactions related to the Company's participation in commercial and non-commercial organizations in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan;
Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;	Making decisions on issuing corporate bonds by the Company, including bonds convertible into shares;
Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;	Making decisions on the repurchase of the Company's corporate bonds;
Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;	Initially considering issues related to increasing the Company's charter fund (charter capital) and making changes and additions to the Company's Charter regarding the increase of the charter fund (charter capital) and the reduction in the number of the Company's authorized shares;
O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash yuzasidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tavsiya kiritish;	Recommending the General Meeting of Shareholders regarding the price of shares for placement (sale in organized securities markets) in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";
qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;	Initially considering matters related to issuing securities' derivatives;
Jamiyatning Bosh direktorini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;	Initially considering issues related to the election (appointment) of the Company's General Director and the early termination of their powers;
Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;	Initially considering matters regarding the determination of the salary and (or) compensations for the Company's General Director, as well as the maximum amounts of these payments;
O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Jamiyat Ustavida ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.	Implementing other powers provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company's Charter.
2.2. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bosh direktorga o'tkazilishi mumkin emas.	2.2. Matters included in the powers of the Supervisory Board cannot be transferred to the General Director for resolution.

ЯК

III. KUZATUV KENGASHINING A'ZOLARINI SAYLASH	III. ELECTION OF MEMBERS OF THE SUPERVISORY BOARD
3.1. Kuzatuv kengashining a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yillik muddatga saylanadilar.	3.1. The members of the Supervisory Board are elected by the General Meeting of Shareholders for a term of 3 (three) years in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company's Charter.
Kuzatuv kengashi 5 (besh) kishidan iborat tarkibda saylanadi.	The Supervisory Board is elected with a composition of 5 (five) members.
3.2. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.	3.2. The persons elected to the Supervisory Board may be re-elected without limitation.
3.3. Jamiyatning Bosh direktori, Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.	3.3. The General Director of the Company, persons employed under labor contracts (contracts) at the Company's subsidiaries and dependent companies, and members of the management bodies of these companies cannot be elected to the Supervisory Board.
Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.	Persons employed under labor contracts (contracts) with the Company cannot be members of the Supervisory Board.
3.4. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:	3.4. The following requirements are set for persons elected to the Supervisory Board:
oliy ma'lumotga ega bo'lish;	Having higher education;
o'z vazifasini samarali bajarish uchun korporativ huquq va boshqaruv sohalarida bilimga, yetarli malakaga va tajribaga ega bo'lish;	Possessing knowledge, sufficient qualifications, and experience in corporate law and management to effectively carry out their duties;
Jamiyatning faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini bilish.	Familiarity with the legislation of the Republic of Uzbekistan regulating the Company's activities.
3.5. Kuzatuv kengashining a'zosi o'z ishini natija beradigan tarzda rejalashtirish va tashkil qilish, o'z mustaqil fikrini bayon qila olish va uni himoya qilish, munozaralar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	3.5. A member of the Supervisory Board must be able to plan and organize his/her work in a result-oriented manner, express and defend their independent opinion, and possess skills in conducting debates.
3.6. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.	3.6. The election of members of the Supervisory Board is conducted through cumulative voting.
Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq	In cumulative voting, the number of votes assigned to each shareholder is multiplied by the number of persons to be elected to the Supervisory Board. The shareholder has the right to allocate all the votes obtained in this way

AK

berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar oʻrtasida taqsimlashga haqlidir. Eng koʻp ovoz toʻplagan nomzodlar Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.	to a single candidate or distribute them among two or more candidates. The candidates who receive the most votes are considered elected to the Supervisory Board.
IV. KUZATUV KENGASHINING RAISI 4.1. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning oʻzlari orasidan Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan koʻpchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi oʻz raisini jami a'zolarining koʻpchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir. 4.2. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida raislik qiladi. Kuzatuv kengashi raisi boʻlmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi. 4.3. Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning oʻz tashabbusiga koʻra, Kuzatuv kengashi a'zolari, Bosh direktor va ichki audit xizmati rahbari talabiga koʻra chaqiriladi va ular majlis kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. 4.4. Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashining raisi Bosh direktor bilan shartnomani imzolaydi.	**IV. THE CHAIRMAN OF THE SUPERVISORY BOARD** 4.1. The Chairman of the Supervisory Board is elected by the members of the Supervisory Board from among themselves, with the majority of votes from the total number of Supervisory Board members. The Supervisory Board has the right to re-elect its Chairman with the majority vote of its total members. 4.2. The Chairman of the Supervisory Board organizes the Board's work, calls meetings, and presides over them. He/she is responsible for ensuring that minutes are kept during the meetings and presiding over the General Meeting of Shareholders. If there is no Chairman, one of the members of the Supervisory Board will perform his/her duties. 4.3. The meetings of the Supervisory Board are called by the Chairman, either on their own initiative or at the request of the Supervisory Board members, the General Director, or the head of the Internal Audit Service. These members have the right to propose items for the meeting agenda. 4.4. On behalf of the Company, the Chairman of the Supervisory Board signs the contract with the General Director.
V. KUZATUV KENGASHINING MAJLISI 5.1. Kuzatuv kengashining majlisini oʻtkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning 75 (etmish besh) foizidan kam boʻlmasligi kerak. 5.2. Ovozga qoʻyilgan masala boʻyicha Kuzatuv kengashining qarori, agar Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligida va Jamiyat Ustavida boshqacha qoida belgilanmagan boʻlsa, majlisda hozir boʻlganlarning koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi.	**V. MEETINGS OF THE SUPERVISORY BOARD** 5.1. To hold a meeting of the Supervisory Board, a quorum must be at least 75 (seventy-five) percent of the members elected to the Supervisory Board. 5.2. The decision of the Supervisory Board on a matter put to a vote is made by a majority vote of the members present at the meeting, unless otherwise specified by the legislation of the Republic of Uzbekistan or the Company's Charter.

ЯК

Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega.	Each member of the Supervisory Board has one vote during the decision-making process.
Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.	A member of the Supervisory Board is not allowed to give his/her vote to another member of the Supervisory Board.
Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.	In the event of a tie vote among the members of the Supervisory Board, the vote of the Chairman of the Supervisory Board will be decisive in making the decision.
5.3. Kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi yozma shakldagi xabar uning har bir a'zosiga yuboriladi. Xabarda yig'ilish kun tartibi, uni o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi. Xabarga, dastlabki tarzda tanishib chiqish uchun, kun tartibi bilan bog'liq bo'lgan barcha zarur hujjatlar ilova qilinadi. Kun tartibiga kiritilmagan masalalar majlisda ko'rib chiqilmaydi.	5.3. A written notice regarding the meeting of the Supervisory Board must be sent to each member. The notice should include the agenda, time, and place of the meeting. All necessary documents related to the agenda should be attached to the notice for the members to review beforehand. Issues not included in the agenda will not be discussed at the meeting.
5.4. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni mazkur Nizomning 3.1-bandida belgilangan miqdorning 75 (etmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishi shart.	5.4. If the number of members of the Supervisory Board falls below 75 (seventy-five) percent of the amount specified in paragraph 3.1 of this Regulation, an extraordinary general meeting of shareholders must be called to elect a new composition of the Supervisory Board.
Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Bosh direktorning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.	The remaining members of the Supervisory Board have the right to make a decision to call such an extraordinary general meeting of shareholders, and in case the General Director's powers are prematurely terminated, to appoint an interim General Director.
5.5. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.	5.5. The minutes of the Supervisory Board meeting shall be kept. The minutes of the meeting shall be drawn up no later than ten days after the meeting.
Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi: majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy; majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar; majlisda hozir bo'lgan shaxslar;	The minutes must include the following details: The date, time, and location of the meeting; The individuals who participated in the meeting, including those who participated remotely using information and communication technologies; The individuals present at the meeting;

majlisning kun tartibi; ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari; qabul qilingan qarorlar. 5.6. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Bosh direktorga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror haqidagi axborot Bosh direktorga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi. 5.7. Kuzatuv kengashining majlisi o'tkazilishini tashkil qilish, Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishi tartibi va qoidalariga rioya qilinishi, Kuzatuv kengashi majlisi qarorlarining rasmiylashtirilishi va ijrosini ta'minlash uchun Bosh direktorga yetkazilishini Kuzatuv kengashi kotibi amalga oshiradi.	The meeting agenda; The issues put to a vote, the results of the vote; The decisions made. 5.6. The minutes of the Supervisory Board meeting shall be signed by the members of the Supervisory Board who participated in the meeting, and they will be responsible for ensuring the correctness of the minutes. The decisions of the Supervisory Board can be made by unanimous vote of all members of the Supervisory Board through written (survey) voting. The minutes of the Supervisory Board meeting shall be submitted to the General Director for execution on the day they are signed. If the Supervisory Board has made a decision to call a General Meeting of Shareholders, the information about this decision shall be provided to the General Director on the day of the Supervisory Board meeting. 5.7. The Secretary of the Supervisory Board is responsible for organizing the holding of the Supervisory Board meeting, ensuring compliance with the procedure and rules for holding the meeting, formalizing the decisions of the Supervisory Board, and ensuring their communication to the General Director for execution.
VI. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI **6.1. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:** Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, majlis reglamenti bilan ajratilgan vaqt doirasida majlisda muhokama qilinadigan masala bo'yicha so'zga chiqish; aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qaror qabul qilishda aksiyadorning ishonchli vakili bo'lish;	**VI. RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE MEMBERS OF THE SUPERVISORY BOARD** **6.1. The members of the Supervisory Board have the following rights:** Personally participating in the Supervisory Board meeting, and within the time limits set by the meeting regulations, speaking on the matter being discussed at the meeting; Acting as a proxy for a shareholder in the decision-making process at the General Meeting of Shareholders;

MX

Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra Jamiyatning ma'lum bir davr oralig'ida yuritgan faoliyati to'g'risida, uning rivojlanish rejalari haqida ma'lumotlarini olish;	Receiving information about the activities of the Company during a specific period and its development plans, based on the decision of the Supervisory Board;
aksiyadorlar tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi asosida qisqa muddatli (yillik) va o'rta muddatli (5 yillik davrgacha) rivojlanish manbalarini tasdiqlash;	Approving short-term (annual) and medium-term (up to 5 years) development sources based on the long-term development strategy approved by the shareholders;
Jamiyat tomonidan qabul qilingan rivojlanish rejalaridagi maqsadlarga yetishishning monitoringiga yordam beruvchi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni joriy etish;	Introducing qualitative and quantitative indicators to help monitor the achievement of the objectives in the development plans adopted by the Company;
Kuzatuv kengashida ma'lum funksiyalarni bajarib ishlaganlik uchun haq olish.	Receiving compensation for fulfilling certain functions in the Supervisory Board.
Kuzatuv kengashi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Jamiyatning Ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.	The members of the Supervisory Board also have other rights provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company's Charter.
6.2. Kuzatuv kengashining har bir a'zosi uchun aniq vazifalar taqsimlanishi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan amalga oshiriladi.	6.2. The assignment of specific tasks for each member of the Supervisory Board is carried out by the Chairman of the Supervisory Board.
6.3. Jamiyat tomonidan bitim tuzilishida manfaatdor bo'lgan Kuzatuv kengashining a'zosi, o'zining manfaatdorligini Kuzatuv kengashiga bitim tuzilgunga qadar bitim tuzishda qatnashayotgan shaxslar, bitim predmeti, tegishli shartnomaning muhim shartlarini o'z ichiga qamrab olgan mukammal axborotni yozma taqdim etishi lozim.	6.3. A member of the Supervisory Board, who has an interest in a transaction made by the Company, must provide written information to the Supervisory Board about his/her interest before the transaction is concluded. This information must include details about the persons involved in the transaction, the subject of the transaction, and the key terms of the relevant contract.
6.4. Kuzatuv kengashining a'zosi Jamiyat tomonidan tuziladigan bitim tuzilishida quyidagi holatlarda manfaatdor shaxs hisoblanadi:	6.4. A member of the Supervisory Board is considered an interested party in a transaction made by the Company in the following cases:
bitim tuzayotgan taraflardan biri bo'lsa;	If he/she is one of the parties to the transaction;
yaqin qarindoshlari bilan birga Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa yoki yaqin qarindoshlari bilan birga shartnoma tuzilayotgan yuridik shaxsning kuzatuv kengashi a'zolarining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa;	If, together with his/her close relatives, he/she constitutes at least one-third of the members of the Supervisory Board of the Company, or if, together with his/her close relatives, he/she constitutes at least one-third of the members of the supervisory board of the legal entity with which the contract is being made;
yaqin qarindoshlari bilan ushbu Jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir	If, together with his/her close relatives, he/she constitutes at least one-third of the

9K